

MING YILLIKLARGA TENGDOSH – ARKUT!**Djabborov Alisher Kuychiyevich****Samarqand davlat universiteti tarix fakulteti
arxeologiya yo‘nalishi 2-bosqich magistranti**historic85@gmail.com

Annotatsiya: Mamlakatimizning jahon hamjamiyatida o‘ziga xos o‘rni va mavqeyini ko‘rsatish hamda jahon mamlakatlari bilan teng huquqli asoslarda munosabatlarni shakllantirishda avvalo, xalqimizning o‘z tarixini bilish jarayoni ham muhim omillardan sanaladi. Jumladan, mamlakatimizning qay darajada boy tarixiy osori atiqalarga ega ekanligi, Yevropa va Osiyo mintaqasining aloqalar markazida joylashganligi va shu boisdan insoniyat rivojining dastlabki onlaridan ahamiyati yuqori bo‘lganligini anglash va uni jahon hamjamiyati bilan bo‘ladigan munosabatlarda ifodalash hamda kelgusidagi mamlakat rivoji uchun belgilash muhim ahamiyatlidir. Shunday ekan mamlakatimiz o‘tmish tarixiga oid har bir elementlarni sinchkovlik bilan o‘rganish har bir mutaxassis, qolaversa fuqaro oldiga ulkan vazifalar hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan ushbu maqolada mamlakatimiz tarixining ajralmas va boy tarixga ega bo‘lgan hududi – Urgut tumani haqida so‘z yuritiladi. Avvalo, tumanning joylashuv o‘rni, nomining kelib chiqishi, aholining qachondan boshlab yashay boshlaganligi, tarixiy yodgorliklari, keying davrlarda mamlakatimiz hayotidagi o‘rni va salohiyati haqida gap yuritiladi.

Kalit so‘zlar: Urgut, Samarqand, arxeologik yodgorliklar, tepalikdagi qo‘rg‘on, Arkut, Amonqo‘ton, arg‘u, Quldortepa.

Abstract: First of all, the process of knowing the history of our people is one of the important factors in showing the unique place and status of our country in the world community and forming relations with the countries of the world on the basis of equal rights. In particular, it is important to realize that our country has a rich historical heritage of antiques, that it is located in the center of relations between Europe and Asia, and that is why it is more important than the first moments of human development. . Therefore, a thorough study of every element of the past history of our country is a huge task for every expert and citizen. From this point of view, this article talks about the region of the history of our country, which has an integral and rich history - Urgut district. First of all, we will talk about the location of the district, the origin of its name, when the population began to live, its historical monuments, and its role and potential in the life of our country in the future.

Key words: Urgut, Samarkand, archaeological monuments, fortress on the hill, Arkut, Amonquton, argu, Kuldortepa.

KIRISH

Ma'lumki, yer yuzidagi hech bir millat yoki davlat o'z tarixi, o'z o'tmishini bilmay turib, bugungi kuni va kelajagi to'g'risida biror bir fikr yoki mulohazaga kela olmaydi hamda kelajak rejalarini tuza olmaydi. Shuning uchun bo'lsa kerak, respublikamiz mustaqilligi dastlabki kunlaridanoq hukumatimiz rahbarlari va qolaversa ziylolar qatlamlari tomonidan o'z tilimiz, urf-odatlarimiz va tariximizni saqlash, uni to'g'ri yoritish hamda kelajak avlodga yetkazish uchun harakatlar amalga oshirib kelinmoqda. Xususan, Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyevning «...tarixiy merosni asrab-avaylash, o'rganish va avlodlardan avlodlarga qoldirish davlatimiz siyosatining eng muhim ustuvor yo'nalishlaridan biridir»¹⁹ deb ta'kidlaganlari yuqorida fikrlarning qanchalik haqiqatga yaqinligini ko'rsatib turadi.

Darhaqiqat, eng qadimgi o'tmishdan to hozirgacha bo'lgan davlatchiligidan va uning rivojlanish bosqichlari tarixi, shu hududda yashagan xalqlarning, ijtimoiy-siyosiy, madaniy va iqtisodiy hayotini chuqur hamda keng o'rganish uchun katta imkoniyatlar yaratib berildi. Shu bois, yurtimizning qadimgi sivilizasiya markazlaridan biri bo'lgan hozirgi Urgut tumanida mavjud bo'lgan qadimiy xalqlarning yodgorliklarini, ularning siyosiy, madaniy hamda iqtisodiy hayotini o'rganish ham respublikamiz mustaqillik yillarida yangi bosqichga ko'tarildi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Qayd etish kerakki, mamlakatimiz va davlatchiligidan tarixining ajralmas va tarkibiy qismlaridan biri bo'lgan Urgut tumani hududi hozirda ham respublikamiz ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy hayotida muhim o'rin tutuvchi hudud hisoblanadi. Hozirgi kunga qadar Urgut tumani hududidan 362 ta arxeologik yodgorlik topilgan bo'lib, yodgorliklar ba'zilarining yoshi insoniyat taraqqiyotining eng qadimgi davrlariga borib taqaladi. Ushbu yodgorliklardan taxminan 170 tasida arxeologik tadqiqotlar amalga oshirilib, ma'lum ma'noda o'rganilgan bo'lsa ham hudud tarixiy rivojlanishining asosiy bosqichlarini yoritishda katta ahamiyatga ega hisoblanadi.²⁰

Urgut tumani Samarqand viloyati tarkibidagi tuman bo'lib, Zarafshon tog'tizmalarining davomi bo'lgan Chaqilikalon va Qoratepa tog'larining shimoliy yon bag'rida joylashgan hamda hozirgi tuman ko'rinishida 1926 yil 29 sentabrda tashkil

¹⁹ Мирзиёев Ш.М. «Миллий тараққиёт йўлмизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз». 1-жилд. Тошкент «Ўзбекистон» 2017й. Б-29.

²⁰ Бердимурадов А.Э. «Каталог археологических памятников Узбекистана» Том 1. Самаркандская область. Часть 3. Ургутский район / Бердимурадов А.Э. – Самарканд, 2017 г. Стр-4.

topgan. Urgut tumani Samarqand viloyatining Tayloq tumani, Samarqand va Bulung‘ur tumanlari bilan, Qashqadaryo viloyatining Kitob tumani hamda Sug‘d viloyati Panjakent tumani bilan chegaradoshdir. Maydoni 1120 kv. km. bo‘lib, asosiy hududi dengiz sathidan 1000 m. balandlikda joylashgan.²¹ Aholisi 2021 yil 1 oktabr holatiga ko‘ra, 528.9 ming kishini tashkil qiladi²² hamda aholi zichligi 1 kv.km 472 kishiga to‘g‘ri keladi.

Iqlimi keskin kontinental. Yanvarning o‘rtacha teritoriyasi -1.5 gradus, eng past tempratura -25 gradus. Iyulning o‘rtacha tempraturasi 24 gradus, eng yuqori tempratura 49 gradus. Yillik yog‘in 450-500 mm. Yog‘inning 34 foizi qishda, 48 foizi esa bahorda yog‘adi. Urgut tumanida bir necha yirik kanallar mavjud bo‘lib, bular sirasiga Darg‘om va Yangiariq kanallarini kiritib o‘tish mumkin.²³

Urgut toponomi qadimiy nomlardan hisoblanadi. Z.M.Bobur Urgut qo‘rg‘oni haqida gapirar ekan, uning Shovdor tog‘lari (hozirgi Chaqilakalon) yon bag‘rida ekanligini qayd etadi.²⁴ Farg‘ona viloyati va Tojikiston Respublikasidagi Urmetan qishloqlari, Panjakent shahri xarobasidagi Urdokan nomlari tarkibidagi birinchi komponent “ur, urd” sug‘d tilidagi “vouru” so‘zidan kelib chiqqan bo‘lib, “ko‘tarma, tepa, baland, yuqori” ma’nolarini anglatadi. “Kat, kot, gut” topoleksemalari “shahar, qishloq, qo‘rg‘on, istehkom” nomlarini yasashda ishtirok etadi. Demak, Urgut toponomi “Tepalikdagi qo‘rg‘on, istehkom” ma’nosidagiso‘z bo‘lib, u joylashgan o‘rniga nisbatan joylashgan.²⁵

NATIJALAR

V.L.Vyatkin shahar faqat mang‘itlar hukmronligi davriga kelib Urgut deb atalaboshlagan, undan oldin “Arkut” deb nomlangan deydi.²⁶

Tilshunos Z.Do‘simov toponimni “Arg‘u” qabilasi bilan bog‘lash mumkin deydi va Mahmud Qoshg‘ariy arg‘u – turk qabilasi deb ko‘rsatishiga asoslanib, nomning qadimgi manbalardagi variant Arkut (arg‘u va “t” lar affiksi) asosida Urgut so‘zi “arg‘u, arg‘ular yashaydigan joy” ma’nosini bildiradi deydi.²⁷

Tarixchi Muhammad Yoqub ibn Doniyolbiy o‘zining “Gulshanam mulk” asarida 1797-1798 yillarda Movarounnahrda kuchli zilzila bo‘lib o‘tganligi va bu yer qimirlashi davrida Urgut qo‘rg‘onidagi binolar vayronaga aylanganligini yozib

²¹ Бердимурадов А.Э. «Каталог археологических памятников Узбекистана» Том 1. Самаркандская область. Часть 3. Ургутский район / Бердимурадов А.Э. – Самарканд, 2017 г. Стр-4.

²²https://samstat.uz/uz/?preview=1&option=com_dropfiles&format=&task=frontfile.download&catid=284&id=1705&Itemid=1000000000000

²³ Бердимурадов А.Э. «Каталог археологических памятников Узбекистана» Том 1. Самаркандская область. Часть 3. Ургутский район / Бердимурадов А.Э. – Самарканд, 2017 г. Стр-4.

²⁴ З.М.Бобур “Бобурнома”. Тошкент, 1960й. 99-бет

²⁵ Н.Бегалиев, А.Туробов “Самарқанд топонимияси” СамДЧТИ, 2015 й. 85-бет

²⁶ “Справочная книжка Самаркандской области” под редакцией и.д Секретаря Статистического Комитета М.Вирского. Выпуск VII. Самарканд, 1902г. Стр-35

²⁷ Н.Бегалиев, А.Туробов “Самарқанд топонимияси” СамДЧТИ, 2015 й. 85-бет

qoldirgan. U “zilzila shunday kuchli bo‘ldiki, hatto yarim sir (1600) gramm keladigan biror bo‘lak devor kesagini ham toppish amri mahol bo‘ldi” deydi.

Yuqorida ta’kidlab o‘tilganidek, hozirgi kunga qadar Urgut tumani hududidan 362 ta arxeologik yodgorlik topilgan bo‘lib, yodgorliklar ba’zilarining yoshi insoniyat taraqqiyotining eng qadimgi davrlariga borib taqaladi. Ushbu yodgorliklardan taxminan 170 tasida arxeologik tadqiqotlar amalga oshirilib, ma’lum ma’noda o‘rganilgan bo‘lsa ham hudud tarixiy rivojlanishining asosiy bosqichlarini yoritishda katta ahamiyatga ega hisoblanadi.²⁸ Urgut tumani hududida dastlabki arxeologik tadqiqotlar 1930 yillardan boshlangan bo‘lib, ushbu arxeologik tadqiqot ishlari Samarqand muzeyi arxeologik ekspedisiyasi (G.V.Grigoryev rahbarligida) tashkil etilgan edi. Keyinchalik bir qator olimlar, jumladan D.N.Lev, A.Asqarov, N.Tashkenbayev, N.Avanesova, A.Berdimurodov, M.Samibayev va boshqa tadqiqotchi olimlar uning tarixini o‘rganishga o‘z hissalarini qo‘shdilar. Tadqiqotlar davomida bir qator yodgorliklar o‘rganildi. Bular jumlasiga misol sifatida quyidagi davrlar silsilasida ba’zi yodgorliklarni e’tirof etishimiz mumkin. Jumladan, Urgut tumani hududida paleolit davriga mansub biz uchun ma’lum bo‘lgan uchta yodgorlik (Omonqo‘ton, Takalisoy va Go‘rdara) mavjud bo‘lib, ular tumanning janubiy hududi tog‘larida joylashgan. Bu davrga oid yodgorliklar sanoqli topilgan bo‘lsada, tarixiy ahamiyati, ayniqsa Omonqo‘ton g‘orining yuksakdir. Shu bois, Urgut tumani eng qadimgi manzilgohlari nuqtai nazaridan Omonqo‘ton g‘or makoni xususida qisqacha to‘xtalib o‘tmoq maqsadga muvofiq hisoblanadi. Omonqo‘ton g‘ori neandertal odamlarning makoni bo‘lib, Urgut tumanining Omonqo‘ton qishlog‘i yaqinida joylashgan. Yodgorlik 1947 yil D.N.Lev rahbarligida SamDU ekspedisiyasi tomonidan kashf qilingan. Makon 1947-1957 yillarda qazib o‘rganilgan. Yodgorlik Zarafshon vohasida mustye davriga oid birinchi bor topilib o‘rganilgan makon hisoblanadi. Uning tadqiq qilinishi vohada keng arxeologik ishlarni yo‘lga qo‘yishda boshlang‘ich nuqta bo‘lib qoldi va bu regionni chuqurroq o‘rganishning istiqboli borligini ko‘rsatdi. Tekshirilgan madaniy qatlaming qalinligi 25 sm dan 1,5 m gacha yetadi. Undan 220 ta tosh ashyoviy topilmalar yig‘ib olingan bo‘lib, qurollarning asosiy qismi chaqmoqtoshdan yasalgan. G‘ordan hammasi bo‘lib 37 ta tosh qurol topilgan. Shulardan 2 tasi yaxshi ishlangan qo‘l sixchasi va 2 tasi qirg‘ichsimon qurollar mustye davri kishilarining did bilan toshni qayta ishlash uslubini ko‘rsatadi.²⁹

²⁸ Бердимурадов А.Э. «Каталог археологических памятников Узбекистана» Том 1. Самаркандская область. Часть 3. Ургутский район / Бердимурадов А.Э. – Самарканд, 2017 г. Стр-4.

²⁹ М.Ж.Жўракулов. «Ўрта Осиё ибтидоий археологияси». Тошкент, «Ўқитувчи» . 1984 й. 51-бет

MUHOKAMALAR

Mezolit va neolit davrlariga kelib aholi yashash punktlari tog‘ g‘orlaridan voha quyi qismlari va chegaradosh hududlarga ko‘chdi. Bronza davriga kelib aholi hududning Mo‘minobod, G‘o‘s, Fayzobod kabi hududlarida yashaganligini ko‘rishimiz mumkin. Ilk temir davriga oid to‘rt yodgorlik esa o‘zida boy arxeologik materiallarni namoyon etib, hudud tog‘ soylari sug‘orish tizimiga asoslanganligini ko‘rsatadi. Antik davrga kelib tuman hududidagi yodgorliklar soni aytarli darajada o‘sdi deb ayta olishimiz mumkin (hozirgi kunga qadar taxminan 42 ta obyektni tashkil etadi).³⁰ Bu davrda Urgut tumanining shimoliy hududlarida ilk bor Quldortepa kabi muhim aholi punktlari paydo bo‘ldi. Amalga oshirilgan tadqiqot ishlari (Staviskiy, 1959; Staviskiy, Urmanova, 1958; Sandiboyev, 2018, 2019 yilda O‘zbekiston-Koreya arxeologik ekspedisiyasi a’zolari) asosida asrimiz boshlarida shakllangan Quldortepa yodgorligida milodiy III-IV asrlarda keng ko‘lamli qurilish ishlari olib borilganligi, yodgorlik mudofaa devorlari shundan keyin ilk o‘rta asrlarda ham keng qo‘llanib kelinganligi borasida xulosaga kelingan. VIII asrning birinchi yarmida arablarning yurishlari oqibatida yodgorlik tushkunlikka tushib, IX-X asrlarda o‘z mavqye’ini yo‘qotgan.³¹ Qolaversa, antik davrda muhim bo‘lgan hududning sug‘orish tarmoqlari, ya’ni Zarafshon daryosi kanallari (Darg‘om va Yangiariq) tashkil topdi. Ilk o‘rta asrlarga kelib hududda aholi punktlari va yodgorliklar soni ortib bordi. Jumladan, bunga ilk o‘rta asrlarga oid taxminan 106 ta yodgorlik guvohlik beradi.³² Mang‘itobod, Quldortepa va Mozortepa kabi qal’a va shaharlar hudud infratuzilmasi va sug‘orish tizimlarini boshqardi. «Jartepa-2» kabi yodgorliklarning mavjudligi esa hudud me’morchiligi va devoriy tasviri gullaganligi ko‘rsatadi. Rivojlangan o‘rta asrlar davriga oid yodgorliklar soni kamayib, ta’minan 43 tani tashkil etadi.³³ Bu balki arablar istilosidan keyingi qayta joylashtirishlar bilan aloqador bo‘lishi ham mumkin.

XULOSA

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, yuqorida ko‘rib chiqqanimiz kabi mamlakatimiz haqiqatdan juda boy o‘tmish, boy tarix va osori atiqalarga ega hisoblanadi. Jumladan, birgina Urgut tumanida hozirgi kunga qadar 362 ta arxeologik yodgorliklar borligi qayd etilib, shundan 170 ta arxeologik yodgorliklar ma’lum ma’noda o‘rganganligini ko‘rishimiz mumkin. Shu boisdan, kelgusida mamlakatimiz

³⁰ Бердимурадов А.Э. «Каталог археологических памятников Узбекистана» Том 1. Самаркандская область. Часть 3. Ургутский район / Бердимурадов А.Э. – Самарканд, 2017 г. Стр-5.

³¹ «Ўзбекистонда археологик тадқиқотлар, 2018-2019 йиллар, 12-сони» Самарканд-2020, 282-288-бетлар

³² Бердимурадов А.Э. «Каталог археологических памятников Узбекистана» Том 1. Самаркандская область. Часть 3. Ургутский район / Бердимурадов А.Э. – Самарканд, 2017 г. Стр-5.

³³ Бердимурадов А.Э. «Каталог археологических памятников Узбекистана» Том 1. Самаркандская область. Часть 3. Ургутский район / Бердимурадов А.Э. – Самарканд, 2017 г. Стр-5.

mutaxassis kadrlari, qolaversa har bir fuqarodan ushbu kabi tarixiy yodgorliklarni saqlash, ularni to‘liq o‘rganish va jahon hamjayimatiga ko‘rsatib berish hamda kelgusi avlodlarga saqlash talab etiladi. Bundan tashqari, globallashayotgan dunyoda tarixiy turizm ham rivojlna borayotgan ekan bizning mamlakatimiz hududidagi tarixiy yodgorliklarni to‘liq o‘rganib, uni saqlab va jahon hamjamiyatiga ko‘rsatib bera olishimiz nafaqat tarixiy merosimizni saqlashda, qolaversa sayyohlik oqimini ham shakllantirish, mamlakat iqtisodiyotida sayyohlik iqtisodiy tushumini oshirishda ham samarali hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Мирзиёев Ш.М. «Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга қўтарамиз». 1-жилд. Тошкент «Ўзбекистон» 2017й.
2. Бердимурадов А.Э. «Каталог археологических памятников Узбекистана» Том 1. Самаркандская область. Часть 3. Ургутский район / Бердимурадов А.Э. – Самарканд, 2017 г.
3. Бобур З.М. “Бобурнома”. Тошкент, 1960й.
4. Бегалиев Н, Туробов А. “Самарқанд топонимияси” СамДЧТИ, 2015й.
5. М.Ж.Жўрақулов. «Ўрта Осиё ибтидоий археологияси». Тошкент, «Ўқитувчи» . 1984 й.
6. “Справочная книжка Самаркандской области” под редакцией и.д Секретаря Статистического Комитета М.Вирского. Выпуск VII. Самарканд, 1902г.
7. https://samstat.uz/uz/?preview=1&option=com_dropfiles&format=&task=frontfile.download&catid=284&id=1705&Itemid=1000000000000